

## 70-80-YILLAR SHE'RIYATIDA IJTIMOIIY, MADANIY MASALALARNING AKS ETTIRILISHI (RAUF PARFI, XURSHID DAVRON SHE'RIYATI MISOLIDA)

**Maxmudov Sardorbek**

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi magistranti

***Annotatsiya:** Har bir adabiy davrning o'z ko'rinishi, o'ziga xosligi, boshqa davrlardan farqi bo'ladi. U yerdagi hodisalar, ijtimoiy ong, ijtimoiy tafakkur o'zidan oldingi adabiy avlodlardan farqli albatta. Maqolada XX asrning 70-80-yillari she'riyatida ijtimoiy, madaniy masalalarning yoritilishi haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** adabiyot, poetika, XX asrning 70-80-yillari, Rauf Parfi, Xurshid Davron, ijtimoiy-siyosiy, madaniy masalalar.*

***Аннотация:** Каждый литературный период имеет свой облик, уникальность и отличие от других периодов. События там, общественное сознание, общественное мышление, безусловно, отличаются от предшествующих литературных поколений. В статье говорится об освещении социокультурной проблематики в поэзии 70-х и 80-х годов XX века.*

***Ключевые слова:** литература, поэтика, 70-80-е годы XX века, Рауф Парфи, Хуршид Даврон, общественно-политические, культурные проблемы.*

***Annotation:** Each literary period has its own appearance, uniqueness and difference from other periods. Events there, public consciousness, public thinking, of course, differ from previous literary generations. The article deals with the coverage of socio-cultural issues in the poetry of the 70s and 80s of the twentieth century.*

***Key words:** literature, poetics, 70-80s of the XX century, Rauf Parfi, Khurshid Davron, socio-political, cultural problems.*

XX asrning 70-80-yillariga kelib, mustamlaka ko'lankasi anchayin xira tortgan, o'zining qariyalik davrini boshdan kechirayotgan edi. Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron kabi ijodkorlar ong-u shuurida kechayotgan o'y-fikrlar, qalb qozonida qaynayotgan his-tuyg'ular xalqining o'tmishi, buguni va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga ortgan edilar. "Chunki bu avlod vakillari jamiyatda fasl almashgan o'sha 50-yillar o'rtalarida endigina maktabga borgan,

“ijtimoiy bahor” kayfiyatiga yarasha saboqlar tinglagan, shuning nafasi ufurib turgan darsliklar-u gazeta-jurnallarni mutolaa qilgan, radio-televideniye orqali yer yuzidagi jannatdan reportajlarni tinglab-tomosha qilib ulg‘aygan. Va shu bois ham bu avlod o‘zi to‘qnash kelgan hayot bilan g‘oyaning, so‘z bilan amalning bir- biriga nomuvofiqligini 60-yillar avlodiga nisbatan teranroq his qilgan.”<sup>1</sup> *Va bu jarayonlarga bo‘lgan munosabat yuqorida keltirgan har bir ijodkor she‘riyatida o‘ziga xos uslub va ko‘rinishlarda akslanadi.*

*70-80-yillarga kelib badiiy adabiyotdan farqli o‘laroq boshqa san‘at turlari ham anchayin rivojlandi. Rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, teatr, kino kabi (amaliy) san‘at turlari ijodkor ruhiyatiga, she‘riyatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsata boshladi. Ya‘ni san‘atlar qorishuvi, sintezlashuvi hodisasi yuz berdi. Buni yuqorida asos qilib olgan shoirlarimiz she‘riyatidagi san‘at mavzusida yozilgan she‘rlarni tematik guruhlarga bo‘lib o‘rgansak:*

*a) san‘atkor qismati haqida yozilgan she‘rlar;*

*b) san‘atning mohiyati, vazifalari haqida yozilgan she‘rlar;*

*c) san‘at asari va asar obrazlari haqida yozilgan she‘rlar kabi guruhlarga bo‘lib olishimiz mumkin.*

*Rauf Parfining 1970-yilda yozgan “Shoir”<sup>2</sup> nomli she‘rida shoirning o‘z qalbini, o‘zligini, shoir nomining zalvori, mas‘uliyatining og‘ir ekanligi, bu yukni har kim ham ko‘tarib yurishga qodir emasligiga guvoh bo‘lamiz. Shoir ijod onlaridagi hayratni shunday ko‘chiradi misralarga [O, ona tabiat, ma‘yus onajon], [Sirli bu zavq aro sirqiraydir tan], [Oxiri o‘ldirar meni hayajon], [Boisi ne, aytolmasman daf‘atan]. Shoir ilk misrada tabiatni onaga mengzaydi, ma‘yus onaga... Tanasi sirqirayotgan shoir onasiga topinyabdi. Sirli zavq degani nima o‘zi, shoirni nega qiynoqqa solmoqda? Shoir quyiroqda lirik qahramonni [Varaqlar ustida mixlandi nigoh], [Yong‘in changalida turibman axir] deya tasvirlaydi. Bu ijod onlarida o‘z ichidan his qilib kelgan haqiqatini g‘iloflamasdan varaqqa ko‘chira olishdagi qiynoq emasmikan? Quyiroqda shoir [Kimni shoir deya tan olar jahon], [Biz kimni shoir deb ataymiz bu kun?] dey savol qo‘yadi. Va quyidagi bandlarda o‘z savoliga javob beradi:*

*Kimdir ul, jafokash shu xilqat aro*

*Hamnishin tutingan qora qalamga.*

*Kimdir ul, g‘amgusor va motamsaro*

*Fikr sochayotgan turkiy olamga.*

<sup>1</sup> Hamdamov U.70-yillar avlodi she‘riyati: Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron

<https://kh-davron.uz/yangiliklar/ulugbek-hamdami-70-yillar-avlodi-she'riyati-xurshid-davron.html>

<sup>2</sup> Rauf Parfi Saylanma. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022. – B.229.

*Kimdir ul? Ermak deb kuylarmi nahot,  
Soxta ehtiroslar chulg'armi uni?  
Yo'q!..Yo'q, yaralmadi u bilgan hayot,  
Hali tug'ilmadi shoirning kuni.*

*Birinchi banddagi birinchi qo'shmisrada hayotni "jafokash xilqat" unda asliyati qiynoqda yashayotgan "kimdir" qora qalamga hamdard-u hamnishin ekanligini, keyingi qo'shmisrada esa o'sha "kimdir" bo'g'zidagi g'amgusor og'ir so'zlarni turkiy olamga aytayotgani emas balki sochayotganiga guvohi bo'lamiz. Keyingi band oldingi bandga zid qo'yiladi. Yana "kimdir"lar borki, ularning kuylari ermakdan, soxta ehtirosdan yaralajagini, u tasvirlagan go'zal hayot, ozodlik, erk, insoniy huquq hali yo'qligi, erishilmaganligi va shuning uchun shoir hali yonishi, kurashishi kerakligini uqdiradi. Keyingi bandlarda esa shoir yuqoridagi fikrlarini dalillaydi:*

*Hali qaylardadir jang borar yovuz,  
Ma'sum go'daklarning shami o'chmoqda.  
Musiqor\* emas-ku, temir yalmog'iz  
Mushtarak osmonda uchmoqda.*

*Ne ellar, vatanlar gulxanda yonib  
Shoir ko'z o'ngidan o'tadi bir-bir –  
Barchaning dardini o'ziga olib  
Majnun bo'lib yurar shuning-chun shoir.*

*Ezgulik va yovuzlik o'rtasida azaliy kurash kechadi. Bu kurashga o't qalaganlar, uni yoqishga, vahshat urug'ini har yoqqa sochishga urinayotgan, o'z qorni va nafi yo'lida har qanday tubanlikni kasb qilgan kimsalar o'zga yerlarga, o'zga millatlarga qirg'in uyushtirgan, ma'naviyati, urf-odati, e'tiqodi, din-u diyonati vaholanki o'zligini yer yuzidan supurib yuborishga urinayotgan qattollarga shoirning ochiq isyoni edi. Shoirni faqat turkiy dunyo ustidagi "ko'lanka" o'yga toldiribgina qo'ymay, balki butun Sharqu G'arbning ustidan ketmayotgan "ko'lanka"lar chuqur iztirobga ko'madi. Masalan, R. Parfining "Pablo Neruda o'limiga", "Yegishe Charnets xotirasiga", "Viktor Xaraning so'nggi qo'shig'i", "Verlen", "Vatan haqida Bernd Ientshga maktubim", "Bayronning so'nggi safari", "Tagor va srabon yomg'irlari", "Aleksandr Blok" kabi she'rlarida o'sha ijodkorlarning yurtlarida bo'layotgan jabr-u zulmlarni o'z tanasidagi chuqur yara kabi his qiladi va qalamga oladi. "Haqiqiy shoir uchun, – deb yozadi prof. Bahodir Sarimsoqov, – hayot she'riyat bo'lsa, she'riyat uning hayotidir. Men buni ko'plab shoir-u shoirlar hayoti va ijodida kuzatib, shunga iqror bo'ldimki, tug'ma aql,*

qaynoq hissiyot, kuchli xarakter va adolatpeshalik kabi xislatlar shoir shaxsiyatida mujassam bo‘lmog‘i shart. Ana shu xislatlardan birortasi oqsasa, shoir ijodining mahsuli noqis bo‘ladi.”<sup>1</sup> Rauf Parfi ijodining abadiyatga muhrlanishiga sabab ham shu aslida. Haq va haqiqat tomonda turib kurashish va kurashga chorlash ijodkorning ruhiyati, o‘zligi va maqsadi. She’rning keyingi bandalaridan biridagi misralarda shoir shunday deydi, [Hali bo‘g‘izlarda bo‘g‘ilar nafas], [Eski yaralardan chak-chak tomar qon], [Shoirni kuylatgan tabiat emas], [Shoirni kuylatgan Hazrati Inson]. Ilk qo‘shmisrada shoir hali ham erk nafasi bo‘g‘ilgan holda, chak-chak tomayotgan qon esa eski yaralardan qolgani, bu eski yaralar qaysi davr yaralari ekan degan savol tug‘iladi o‘qiguvchida. 1937-53-yillarda O‘zbekistonda 100 ming odam qatag‘onga uchragan. 1937-38-yillardagi katta qatag‘on davrida 7 mingga yaqin vatandoshimiz otilgan. Ozodlik yo‘lida kurash olib borgan jadidlarimiz, ziyolilarimiz, boylarimiz, xalqimiz barchasi qirg‘in qilingan. Tuzalmayotgan yaradan shu ajdodlarimizning qonlari oqayotgandir... ijodkor keyingi qo‘shmisrada shoirni shunchaki tabiat kuylatmasligini, balki uning dardi azaliy, Odam ato o‘z o‘g‘li Hobilga marsiya aytganidek (uning inisi o‘z ukasi qotiliga aylanadi) Hazrati Insonni yig‘latgan ham qalbini hun qilib kuylatgan ham buzg‘unlik hali hamon to‘xtamagani, davom etayotgani, bu dard esa azaliy – Odam Atodan qolgan dard ekani, haqni kuylovchi shoir buyuk e’tiqodidan voz kechmay, yuragida sobit intiqom bilan dardni butun umr his qilib yashashiga, yozishiga mahkum ekanligini anglaymiz. Xurshid Davron 1974-yilda yozgan “San’at”<sup>2</sup> nomli sherida esa bu dardni o‘zgacha, musavvirona tasvirlaydi:

*Xona sovuq. Xontaxta uzra*

*Bo‘m-bo‘sh shisha. Unda oy aksi*

*Va burchakda turibdi muzlab*

*Oq bo‘zdagi g‘amgin qiz rasmi.*

Birinchi qo‘sh misrani o‘qishdayoq o‘quvchi o‘sha xonaga tushib qoladiyu, u yerdagi tasvirlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rishni boshlaydi. Sababi shoir nuqtayi nazar kompozitsiyasi ustida ustalik bilan ish olib boradi. Tashqi olam ko‘rishda lirik qahramon nigohi prof. D. Quronov aytganidek kamera vazifasini o‘taydi. Xuddi kino qahramoni durbin tutib atrofni kuzatadi, tomoshabin esa u kuzatayotgan narsalarni kino qahramoni nigohi orqali, durbinning dumaloq ichida ko‘ra boshlaydi. Ya’ni she’rni o‘qishni boshlagan o‘quvchida shunday holat yuz beradi. Avval lirik qahramon nigohini sovuq xonada xontaxta uzra bo‘m-bo‘sh turgan shishaga qaratadi, unda esa yolg‘iz oy aksini ko‘radi. Bundan lirik qahramon yuz buradi va nigohi

<sup>1</sup> Sarimsoqov B. “Qo‘shqanot ijod parvozi”/ Afoqova N. Arosat fasli. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2004. – B.3.

<sup>2</sup> Xurshid Davron Bolaliking ovozi. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B.9.

burchakdagi boʻzga chizilgan qiz tasviriga tushadi. Xona va lirik qahramon kayfiyatidagi sovuqlik va ruhiy tushkunlik endi oʻsha rasmga ham koʻchadi. Xuddi oʻsha tasvirdagi qiz ham oʻzi kabi muzlab qolgandek koʻrinadi. Ikkinchi bandda esa oʻquvchi voqealarni roviy nigohi<sup>1</sup> orqali kuzata boshlaydi:

*Derazada muzdan qatqaloq,  
Rassom yigʻlar, koʻzlari xira.  
Uni qiynar olis xotira –  
Moʻyqalamda yashagan titroq.*

Ushbu banddagi birinchi va ikkinchi misralar bir-biriga qiyoslanadi. Muzdan qatqaloq qoplagan derazadan tashqariga boqing. Hammayoq xira va koʻrimsiz, ranglar qorishgan holda shundan boshqa hech narsani koʻra olmaysiz. Rassomni yigʻlatgan va koʻzlarini xira torttirgan, uning oʻzi izlagan ranglarini koʻrishiga va chizishiga toʻsqinlik qilayotgan “qatqaloq” nima ekan? Q. Usmonov va M. Sodiqovlar 1950-80-yillar haqida shunday yozadi: “Biroq adabiyot ham kommunistik mafkura doirasidan chiqa olmadi. Badiiy asarlar, asosan, ommaga mafkuraviy taʼsir etuvchi vosita rolini bajardi. Yozuvchi va shoirlar sinfiylikka, partiyaviylikka, marksizm-leninizm aqidalariga asoslangan holda ijod qilishga majbur boʻldilar. Ijod erkinligining chegarasi partiya organlari va senzura tomonidan belgilanar edi. Shu boisdan badiiy asarlarda jamoatchilikni toʻlqinlantirib kelayotgan haqiqiy ijtimoiy va maʼnaviy muammolar oʻz ifodasini topmadi.”<sup>2</sup> Yaʼni bu hukm har bir sanʼat turiga tegishli edi va rassomning koʻzlarini xira torttirgan ham senzura edi. Oʻzining buyuk tarixini, ajdodlarini, asli oʻzligini boʻyoqlar bilan akslantira olmagan rassom(shoir) qalbidagi armon uni shu ahvolga solgan edi. Moʻyqalamda yashayotgan titroq ham shundan aslida.

*Taqdir kechar shunday hamisha –  
Xona sovuq, qotib qolgudek,  
Qotgan nonu boʻshagan shisha  
Va dunyoga kelgan mangulik.*<sup>3</sup>

Sheʼrning yuqoridagi ikki bandida obyektivlashtirilgan tasvir ustuvor, lirik subyektni esa koʻrmaslik. Uchinchi bandaga kelib esa lirik subyekt ichki kechinmalarini ochiq ifodalaydi. Shu yerda kitobxon uni qiynayotgan olis xotiralar nima ekanligini angalaydi. Oʻlimidan soʻng sud qilingan, millati uchun kurashib horlig-u faqirlik, tuhmat-u sotqinliklardan aziyat chekkan maʼrifatchilarimiz, umri qamoqlarda chirigan shoir-u ijodkorlarimizni eslaydi. Ushbu sheʼrda kino, rangtasvir va sheʼriyatning sintezi yaqqol koʻrinadi. Ammo bu yerdagi sanʼat mavzusi va

<sup>1</sup> Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.195.

<sup>2</sup> Usmonov Q., Sodiqov M. Oʻzbekiston tarixi. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2010. – B.361.

<sup>3</sup> Davron X. Bolaliking ovozi. – T.: Adabiyot va sanʼat, 1986. – B.9.

obyektiv tasvir bir vosita xolos. Lirik subyekt uchinchi bandda o'z xulosasini aytadi, bu tasvir ortidagi uni qiynayotgan asosiy og'riq qatag'onlik yillaridan beri davom etib kelayotgan zo'rlik edi nazarimizda. She'r 1974- yili yozilgan. Ijodkorlarga endigina erkinlikning jonsiz epkinlari yela boshlagan palla edi. Ammo shoir chin erkinlik istaydi. Bir rassom qismatida boshqa san'at vakillarining qay qismat yo'lida kelganligi va qay qismat yo'lidan borayotganini chuqur dard bilan ifodalaydi. She'rning mukammalligida ijodkor shaxsning badiiy universalligini ko'rishimiz mumkin.

A. Blok "yozuvchini rasmdan saboq olishga undaydi, yozuvchi uchun rassomning psixologiyasi va dunyoqarashini, uning dunyoni idrok etishini juda muhim deb biladi, garchi fikrlar, his-tuyg'ular va taassurotlarni yetkazish vositalari har xil bo'lsa ham".<sup>1</sup> X. Davron yoshligidan tasviriy san'at bilan shug'ullanadi. Uning teran nigohida tabiatni, borliqni musavvirona ko'ra olish qobiliyati yuksak. Ayni shuning uchun ham rangtasvir va she'riyatning go'zal sintezini uning she'rlarida juda ko'p ko'ramiz. Ushbu ikki san'atning ortiga ulkan ijtimoiy dardni mahorat bilan yuklaganini yuqorida guvohi bo'ldik. Shoir rassomlikda anchagina qobiliyatli edi va keyinchalik ham bu san'at bilan, rassomlar bilan yaqinlikni yo'qotmadi. Ijodkor avvalo jamiyat bilan hamnafas yashaydi. Biz asos qilib olgan ijodkorlarimiz she'rlarida ham xalqning dardi, quvonchi, his- kechinmalari o'z chizgilarini topgan. Ijodkor san'at mavzusiga o'zidan oldingi salaflarining dard- qayg'ularini, kechinmalarini his qilgan holda murojaat qiladi. Bu esa san'at mavzusining ko'lamining kengayishiga yana bir omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu omilida yuqorida misol qilgan she'rimizda ham ko'rdik nazarimda.

---

<sup>1</sup> Блок А. Об искусстве / Сост., вступ., ст. и примеч. Л.К. Долгополова. – М.: Искусство, 1980. – 503 с.